

TEMUR TUZUKLARI KITOBINING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O'RNINI VA AHAMIYATI

Davlatov Jamoliddin Qurbonboy o'g'li

UzMU xarbiy tayyorgarlik o'quv markazi Umumqo'shin tayyorgarlik sikli o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda va buyuk davlat sohibi hisoblangan buyuk bobokalonimiz Amir Temur va uning davlat boshqaruv tizimida muhim rol o'ynagan kitob "Temur tuzuklari" kitobining ahamiyati haqida so'z ketadi. Bundan tashqari yosh avlodni tarbiyalashda ularning ma'naviy olamini yuksaltirish va boyitishda shubhasiz "Temur tuzuklari" kitobi katta ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, tuzuki temuriy, davlat boshqaruvi, qo'shin

Buyuk sarkarda o'z davrida katta davlat va keng hududlarga ega bo'lgan Amir Temur o'z oldiga buyuk saltanatning ichki siyosati va ishchan davlat tizimini qadimiy tajribalardan ijodiy foydalangan holda tuzish, harbiy siyosatni zamon talabi asosida tobora takomillashtirib, mo'g'ul istilosi asoratlarini tezroq bartaraf etish, xo'jalikni oyoqqa turg'izish, ilm-fan, madaniyat kabi sohalarni rivojlantirish edi.

Buning uchun muhim manba sifatida hamda davlat boshqaruvida uzining pand-u nasihatlarini jamlagangan kitob "Temur tuzuklari" kitobini yozib qoldiradi. Sohibqironning davlat ishlarining to'qqiz ulushini mashravat, tadbir va kengash, qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirish zarur, degan ko'rsatmasi XXI asr siyosat maydoni uchun, muammolarni hamjihatlikda yechishga davlat tarzida ko'rsatish mumkin.

Tuzuki Temuriy, Temur Tuzuklari, Malfuzoti Temuriy va Voqioti Temuriy nomlari bilan atalmish ushbu asar qimmatli tarixiy manba bo'lib, u jahondagi mashhur kutubxonalardan joy olgan. Asar Amir Temur tomonidan yozdirilgan bo'lib, avval eski o'zbek yoki turkiy tilde bayon etilgan. Uning bir qo'lyozma nusxasi Yaman hokimi Ja'far podshohning kutubxonasida saqlangan. Mazkur asar XVIII asr ya'ni inglizlar Hindistonni egallay boshlaganlaridan keyin mashhur bo'lib ketadi. Xususan, asar 1783-yili Buyuk Britaniyada ingliz tilida nashr etiladi. Kitob unga bo'lgan qiziqish natijasida 1785-yili Kalkuttada yana bir karra dunyo yuzini ko'rdi. 1855-yilda Dehlida, 1991-yili Boku va Almatda nashr qilinadi.

Temur tuzuklari o'zbek tiliga ma'lum darjada 1835-1836 yillarda Qo'qon qozisi Nabijon Xotifiy, so'ngra 1857-yilda Xivada Muhammad Yusuf ar-Rofiylar tomonidan tarjima qilingan.

Temur tuzuklari 2011 yili o'zbek tilida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. Karimovning "Milliy davlatchiligimiz tarixining mumtoz namunasi" deb nomlangan so'zboshi bilan yuqori sifatda qayta nashrdan chiqarildi. Bu asarning ahamiyati haqida to'xtalib, quyidagi so'zlar "Amir Temurdek buyuk va betakror siymoni har tomonlama tushunish, u barpo etgan qudratli saltanatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy asoslarini, Sohibqironning davlat boshqaruvi borasidagi ulkan salohiyati, mahorati, bilim va tajribalarini o'rganishda, umuman aytganda, hayot sirlarini anglab olishda bebaho qo'llanma bo'lib xizmat qiladi" deb aytib o'tagandilar. Bu asar

hukmdorlarning turmush tarzi va axloq-odob normalarini belgilovchi risola bo'lib ham xizmat qiladi. Temur tuzuklari ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda jahon tarixida o'chmas iz qoldirgan mashhur davlat arbobi va sarkarda Sohibqiron Amir Temur yetti yoshidan to vafotiga qadar uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatini qo'lga kiritish, tarqoqlikka barham berish va markazlashgan davlat tuzish kabi narsalar yozilgan.

Ikkinchi qismida Amir Temurning nomidan aytilgan nasixatlardan iborat. Unda davlatni idora qilishda kimlarga tayanish, toj-u taxt egalari va vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarini saylash, sipohiylarning maoshi, mamlakatlarni boshqarish tartibi, davlat arboblari va qo'shin boshliqlarining burch va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toj-u taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi haqida so'z borgan. Temurning ijtimoiy-siyosiy tamoyillari tizimini yanada batafsilroq bayon qilsak, quyidagi manzara hosil bo'ladi:

1. Amir Temur iqtisodiyotni har qanday saltanat poydevori, deb tushungan.

«Davlatu saltanat – deb ta'kidlaydi, Temur o'zining «Tuzuklari»da, – uch narsa bilan – mulk, xazina va lashkar bilan tirikdir».

Bu bilan Temur davlatning yashashi va ijtimoiy rivoji uchun, avvalo, iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi.

2. Amir Temurning qarashlariga ko'ra, har bir mamlakat, turli xil iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, barcha mintaqalar «xususida to'la ma'lumotlarga ega bo'lishi va ularning iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olishi» lozim.

3. Amir Temur asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan er egaligiga katta e'tibor qildi va har bir viloyatni idora qilishda davlat, vaqf, xususiy er egaligi tartiblarini saqlab qoldi va bunga er maydonining miqdori, egalik huquqini davlat manfaatini ko'zda tutib, o'zgartirishga harakat qildi.

4. Temur mehnatning yaratuvchanlik faoliyatini nazarda tutib, uni ijtimoiy qadriyat, deb tushundi.

5. Amir Temur iqtisodiy tamoyillari tizimida moliya masalalariga katta e'tibor bergan. Chunki moliya Temur nazarida davlatning iqtisodiy tayanchi hisoblangan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki bu kitobda umuman davlat boshqaruvi sohasida ko'plab malumotlar jamlangan.

Ularning hozirgi kundagi ahamiyati ham katta, chunki ko'plab nusxada turli tillarda nashr etilmoqda. Hozirgi kunda Mustaqil O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ham davlat boshqaruv sohasida buyuk davlat arbobi Amir Temur tajribasini chuqur o'rganib, amalda buyuk bobolarimiz tajribasidan unumli foydalanilayotganining isbotidir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. - Toshkent: Sharq, -2000. -365 b.
2. Temur tuzuklari. Ahmedov B. tahriri. - Toshkent: G'afur G'ulom, - 1991. -144 b.
3. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. -Toshkent: O'qituvchi, 1994. -432 b.